

0‘zDSMI rektori Mustaqillik bayrami tayyorgarlik jarayonida ishtirok etayotgan institut talabalari bilan uchrashdi

Mustaqillik – bu xalqimiz uchun eng ulug‘ ne‘mat, buyuk orzularimiz va yuksak intilishlarimiz timsoli, xalqimizning milliy iftixori, kelajagimiz poydevori. Ushbu ulug‘ ayyomni munosib kutib olish va nishonlash har birimiz uchun sharaflı burchdir.

Joriy yil 0‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yilligi mamlakatimiz bo‘ylab katta tantanalar bilan nishonlanishi kutilmoqda. E‘tiborli jihati, mazkur shodiyonalarga tayyorgarlik jarayonlarida 0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti talabalari ham faol ishtirok etishmoqda.

8-avgust kuni institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev «Yangi 0‘zbekiston» bog‘ida bayram shodiyonalariga tayyorgarlik jarayonida ishtirok etayotgan oliygoh talabalari bilan uchrashdi.

Muloqot davomida ushbu jarayon ijodkor talabalarining kelgusi faoliyati uchun ham katta ahamiyatga ega ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tildi. Qolaversa, talabalarning tayyorgarlik jarayonidagi faolliklari ham e‘tirof etilib, ular institut rahbariyati tomondan hamisha qo‘llab-quvvatlanishini ta‘kidlandi. Shuningdek, talaba-yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishildi.

Uchrashuv so‘ngida rektor tomonidan ayyom ishtirokchilariga institut ramzi tushirilgan futbol kalar va bosh kiyimlarni o‘z ichiga olgan esdalik sovg‘alari taqdim etildi.





0'zDSMIda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayoni jadallik bilan davom etmoqda

8-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliygohda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik borasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Jumladan, o'quv binolari va auditoriyalarning holati, o'quv jihozlari yetarliligi ko'zdan kechirildi.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik doirasida xodimlarning mas'uliyatini yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidlanib, har bir vazifa o'z vaqtida va sifatli bajarilishi lozimligi aytib o'tildi. Bu borada belgilangan muddatlarda amalga oshiriladigan ishlar ro'yxati tuzilib, mas'ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

Shuningdek, talabalar turar joyida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va registrator ofisini (talabalarga xizmat

ko'rsatish markazi) tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar ham o'rganildi. Institut rektori mas'ullarga barcha ishlarni sifatli bajarish yuzasidan o'z fikr-mulohazalari va takliflarini bildirib, muhim tavsiyalar berib o'tdi.





Texnikum bitiruvchilari diqqatiga!

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida imtihoni **2024-yilning 14 avgust** kuni bo'lib o'tadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Olmaliq KMK AJ o'rtasidagi ijodiy hamkorlik yanada mustahkamlanadi

Xabaringiz bor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga asosan, yurtimizdagi yetakchi ijodiy tashkilotlarning «Do'stlar klubi» tashkil etilib, ularga yirik korxonalar, bank va kompaniyalar homiy sifatida birlashtirildi.

Shunga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati o'rtasida «Do'stlar klubi» doirasidagi qator ijodiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Joriy yilning 31-iyul kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ boshqaruv raisi, Oliy Majlis senati a'zosi Abdulla Xursanov tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek

Sayfullayev bilan uchrashib ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi rejalari yuzasidan fikr almashishgan edi.

Shunga muvofiq, bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga korxonada rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha maslahatchisi Kamola Umaraliyeva va «Metallurg» madaniyat saroyi direktori Zahriddin Mahmudaliyevlarlar tashrif buyurib, institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bilan uchrashishdi.

Dastlab rektor tomonidan oliygoh tarixi, faoliyati va erishgan yutuqlari borasida mehmonlarga qisqacha ma'lumot berib o'tildi. Uchrashuvda tomonlar korxonada faoliyatiga oid spektakl sahnalashtirish, dramaturgiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar o'rtasida tanlov o'tkazish, korxonada va Olmaliq shahri aholisi uchun yaqinlashib kelayotgan mustaqillik bayramini hamkorlikda yuqori saviyada o'tkazish va doimiy ijodiy aloqalarni o'rnatishga kelishib olib, o'tkaziladigan tadbirlarning aniq rejasini ishlab chiqish bo'yicha mas'ullarga tegishli tavsiyalar berib o'tildi.

Shuningdek, korxonada maslahatchisi K.Umaraliyeva tomonidan institut kutubxonasi uchun Olmaliq KMK AJ homiyligida nashr etilgan kitoblar to'plami, jurnal va gazetalar taqdim qilindi. Ushbu kitob va jurnallar yosh avlodning ma'naviy kamolotini shakllantirish, ularning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda kitobxonlikni rag'batlantirishga xizmat qilishi ta'kidlab o'tildi.





0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vaziri o'rinbosari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi


2-avgust kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida Madaniyat vaziri o'rinbosari Murodjon Majidov ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda oliygoh rahbariyati, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo'lim boshliqlari qatnashdi.

Yig'ilishni kirish so'zi bilan ochib bergan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev oliygohda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari jadallik bilan davom etayotganini hamda muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash va talabalarga yanada qulay sharoitlar yaratish borasida olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratilayotganini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, yig'ilishda tashkiliy masala ko'rib, Madaniyat vazirining tegishli buyrug'i bilan institutga yangidan tayinlangan prorektorlar jamoaga tanishtirildi. Xususan, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor lavozimiga Ergashev Shohbek Muzaffarovich, o'quv ishlari bo'yicha prorektor lavozimiga Madiyev Sobir Xayitqulovich hamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor lavozimiga Yakubov Baxtiyor Choriyevich tayinlandi.

Murodjon Majidov yangi lavozimga tayinlangan prorektorlarga muvaffaqiyat tilab, ularga institut ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, vazir o'rinbosari yoshlar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, ta'lim jarayonini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarga e'tiborni oshirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tdi.






Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik hamda qabul jarayonlariga oid yig'ilish o'tkazildi

16-iyul kuni O'zDSMI rektori, professor Nodirbek Sayfullayev tomonidan barcha prorektorlar, fakultetlar dekanlari hamda bo'lim boshliqlari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda asosiy e'tibor yangi 2024/2025-o'quv yiliga tayyorgarlik hamda qabul jarayonlari masalalariga qaratildi. Xususan, qabul jarayonlarini yuqori saviyada o'tkazish, bu

borada ochiqlik va shaffoflik ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinib, yangi o'quv yiliga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha barcha mas'ullarga tegishli topshiriqlar berib o'tildi. Bundan tashqari, kafedralarning bugungi holati, 2024/2025 o'quv yilida professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamalarini adolatli taqsimlash hamda o'quv rejalarini o'z vaqtida tasdiqlatish masalasi muhokama etildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining o'quv ishlari bo'yicha prorektori – rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib tayinlangan institutning Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori Eldor Shermanov hamda Toshkent shahridagi "S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti" federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi filialining direktori lavozimiga tayinlangan ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati kafedrasini mudiri Iqbol Meliqo'ziyevlarning ham keyingi faoliyatiga muvafaqiyat tilanib, ularga institutning esdalik sovg'alari topshirildi. Yig'ilish so'nggida kun tartibidagi asosiy masalalar yuzasidan rahbar xodimlarning fikr-mulohazalari, takliflari tinglandi.





0'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun muhim eslatma

→ 2024/2025-o'quv yili qabuli uchun kasbiy (ijodiy) imtihonning aniq sanasi, vaqti va manzili har bir abituriyentning my.uzbmb.uz saytidagi shaxsiy kabinetiga yuborilgan.

→ Shuningdek, har bir abituriyent tomonidan shaxsiy kabinetda ko'rsatilgan telefon raqamlariga yuqoridagi suratdagi kabi sms-xabarnoma keladi.

→ **Yuqoridagilarni inobatga olib, abituriyentlardan:**

□ o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali kasbiy (ijodiy) imtihonlarda ishtirok etish ruxsatnomasini yuklab olishlari;
□ ruxsatnomada (qog'ozga chiqarilgan holda) belgilangan muddat va manzilga imtihon boshlanishidan bir soat oldin yetib kelishlari so'raladi.

→ **Qo'shimcha ma'lumotlar uchun:**

☎ (+99871)230-28-42

☎ (+99871)230-28-48

☎ (+99871)230-28-40

Madaniyat va san'at

fidoyilari tantanali kutib olindi

Xabaringiz bor, 15-aprel kuni mamlakatimiz bo'ylab madaniyat va san'at sohasi xodimlari bayrami nishonlanadi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida erta tongdan bayramona kayfiyat hukm surib, iqtidorli yoshlar tomonidan sohaning fidoyi ustoz va murabbiylari tantanali ravishda kutib olindi.





